



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Гулнора Мардиевна Шадиева Малый бизнес как фактор социально-экономического развития Узбекистана	155
Laziz Niyozovich Xudoyorov Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari	160
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Dilafroz Saidbaxromovna Saidaxmedova Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali joriy etish: tahlil va takliflar	164
Ибодулла Хасанович Ибрагимов Персонализация как драйвер повышения результативности транзакционных маркетинговых кампаний	167
Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov Tovar-moddiy zahiralarni erkin talab sharoitida boshqarish – korxonalar operatsion faoliyatining samaradorligini oshirish garovi	171
Xilola Nematovna Ochilova “Kompensatsiya va imtiyozlar” fanining mazmuni, mohiyati va ahamiyati	175
Ирода Аминжонова Умурзакова Совершенствование организационно-экономических механизмов маркетинга в условиях цифровой трансформации сферы услуг	180
Botir Hayat Muradov Togʻ-kon sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyotga oʻtish muammolari va yechimlari	183
Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli Salohiddinov Iqtisodiy jarayonlarda resurslardan foydalanish va taqsimot modellari	186
ИНВЕСТИЦИЯ	
Ойдин Давроновна Хамракулова Инвестиции и становление инновационного пути развития экономики Узбекистана	192
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Bobur Farxodovich Boronov, Shahboz Shodi oʻgʻli Rajaboyev Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining tavsifi va buxgalteriya hisobi	197
Otabek Olimjonovich Sobirov Boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari	202
Xurshidjon Nazrullo oʻgʻli Abdullayev Ekologik audit oʻtkazishning usullari va tartib-qoidalari	205
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Chakana savdo aylanmasining mohiyati va rivojlanishi	211
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Shaxnoza Ergashevna Samandarova Boshlangʻich va umumiy oʻrta taʼlim matematika taʼlimida uzviylik muammosining nazariy asoslari	214
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Самарқанд ҳаётидаги олти муаммо, олти таклиф ва олти натижа	217

Laziz Niyozovich Xudoyorov – Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan. Hududning iqtisodiy imkoniyatlari, mavjud resurslar va tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlar o‘rganilgan holda, kichik biznes subyektlarining faoliyatini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish borasidagi imkoniyatlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligini qayta ishlash, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish kabi yo‘nalishlar asosiy ustuvorliklar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, bandlik, resurslar, aholi daromadi, sanoat kooperatsiyasi, xizmat ko‘rsatish, yoshlar va ayollar tadbirkorligi.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan globallashuv, raqobatbardoshlikning kuchayishi va innovatsion rivojlanish jarayonlarining jadallashuvi sharoitida iqtisodiy o‘shishning muhim omillaridan biri sifatida kichik biznes va tadbirkorlikning roli tobora ortib bormoqda. Kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, aholini ish bilan ta‘minlash, ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to‘ldirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni saqlab turishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan sektordir.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda ustuvor yo‘nalishlarni tadqiq qilish bu mazkur sohadagi resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini to‘liq bayon qilish va uzoq muddatli rivojlanishni ta‘minlashda muhim ilmiy-amaliy vositadir. Bunday tadqiqotlar kichik biznes subyektlari faoliyatining qaysi sohalarida eng katta natijalarga erishish mumkinligini aniqlashga xizmat qiladi. Shu orqali hukumat organlari, investorlar va tadbirkorlar aniq strategiyalar ishlab chiqib, moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash choralari samarali rejalashtirishi mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, ustuvor yo‘nalishlarning ilmiy asosda baholanishi kichik biznesni hududiy diversifikatsiyalash, innovatsion va eksportga yo‘naltirilgan loyihalarni aniqlash, mehnat resurslarini samarali band qilish kabi ko‘plab dolzarb masalalarga yechim topishda ham muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, ustuvor yo‘nalishlarni tadqiq qilish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikka erishishda ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari va mavjud resurs salohiyatini to‘liq ishga solishga qaratilgan bo‘lib, bu borada bir qator muhim yo‘nalishlar ajralib turadi. Avvalo, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish orqali kichik biznes subyektlarini yirik ishlab chiqaruvchilar bilan uzviy bog‘lash, ularning mahsulot yetkazib berish zanjirida ishtirokini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, hududdagi tabiiy va agrar resurslarga asoslangan oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, hamda eksport salohiyatiga ega bo‘lgan klasterlar tashkil etish orqali kichik tadbirkorlikni rag‘batlantirish choralari ko‘rilmoqda. Shu bilan birga infratuzilmani rivojlantirish, ayniqsa, sanoat zonalari va kichik sanoat hududlarida yer ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlash orqali tadbirkorlik uchun qulay muhit shakllantirilmoqda.

Yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini kengaytirish, ularning biznes g‘oyalarini moliyaviy va maslahat yordami bilan qo‘llab-quvvatlash ham viloyatda ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, elektron savdo platformalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali kichik biznes subyektlarining bozorlarga kirib borishi osonlashtirilmoqda. Bu yo‘nalishlar kichik biznes va tadbirkorlikni viloyat iqtisodiyotining muhim tayanchiga aylantirishga xizmat qilmoqda va ularning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kichik biznes va tadbirkorlik nazariyasi, unga iqtisodiy yondashuvlar, ekonometrik tahlil metodlari hamda amaliyotga tatbiq etish masalalari respublika va xorijiy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan va asoslab berilgan. Jumladan,

O‘zbekistonlik olimlardan S.S.G‘ulomov, B.Y. Xodiyev, B.A. Begalov, T.Sh. Shodiyev va Y.Abdullayevlarning ilmiy tadqiqotlarida mazkur sohaning nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha yoritilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan esa F. Xayek, M. Lapusta, Y. Starostin, K. Makkonnell hamda S. Bryularning ilmiy ishlari kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlantirishning muhim konseptual asoslarini yaratishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish jarayonida umumiy ilmiy va statistik usullar, iqtisodiy va matematik modellashtirish elementlari, iqtisodiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, iqtisodiy rivojlanish uchun salmoqli tabiiy resurslar, mehnat resurslari va infratuzilma imkoniyatlariga ega. Viloyat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish va qurilish sohalarida yetakchi o‘rin egallaydi. Kichik biznes va tadbirkorlik ushbu yo‘nalishlarda faoliyat yuritib, hududiy iqtisodiy o‘rnatishni rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Qashqadaryo viloyatining shahar va tumanlari kesimida kichik biznes va tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy faoliyat tarmoqlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarini (1-jadval) o‘rganish ushbu hududlarda iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashda muhim metodologik vosita sifatida xizmat qiladi. Bunday yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy hududlar o‘rtasida mavjud tafovutlarni statistik asosda ochib berish, resurslar taqsimotining hududiy nomutanosibliklarini aniqlash hamda davlat siyosati samarasini hududlar darajasida baholash imkonini beradi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarida kichik biznes va tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy faoliyat tarmoqlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari¹ (2025 yil 1-yanvar holati)

TR	Shahar, tuman nomi	Kichik biznes subyektlari soni (ta)	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd, so‘m)	Qurilish ishlari hajmi (mlrd, so‘m)	Investitsiya hajmi (mlrd, so‘m)	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi (mlrd, so‘m)	Chakana savdo tovar aylanmasi (mlrd, so‘m)	Xizmat ko‘rsatish hajmi (mlrd, so‘m)
Qashqadaryo viloyati		22452	14155,4	11015,6	13499,9	43298,0	24925,0	32958,7
1.	Qarshi sh.	4750	2768,4	3687,5	1582,6	287,3	6289,4	4710,4
2.	Shahrisabz sh.	1358	912,4	495,3	592,2	357,2	1900,9	1529,4
3.	G‘uzor	1058	735,2	799,5	793,7	2757,2	980,2	1245,6
4.	Dehqonobod	871	341,5	262,9	229,9	1786,0	767,1	1329,8
5.	Qamashi	1397	775,0	365,8	211,2	3751,1	1746,9	2915
6.	Qarshi t	1730	885,7	925,3	504,2	3326,9	1113,6	2815,8
7.	Koson	1485	776,4	939,5	277,4	4216,2	1972,7	2465,4
8.	Kitob	1651	906,2	498,8	661,1	4034,3	1287,8	3014,2
9.	Mirishkor	763	969,5	225,8	244,4	2766,6	867,6	2432,4
10.	Muborak	753	1023,7	593,6	288,3	2065,6	682,1	1787,8
11.	Nishon	1132	804,2	201,9	6017,6	2810,2	940,5	1839,5
12.	Kasbi	1043	421,7	389,8	417,3	3700,1	913,4	2084,6
13.	Ko‘kdala	652	350,8	119,4	272,0	2389,5	742,7	661,2
14.	Chiroqchi	1161	1028,0	685,2	644,0	2932,9	1957,7	983,6
15.	Shahrisabz t	1113	776,0	385,3	333,0	2830,8	747,9	1410,6
16.	Yakkabog‘	1535	680,5	440,0	431,0	3286,2	1224,3	1733,4

Tadqiqotdan ko‘rinadiki, Qashqadaryo viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 22 452 ta kichik biznes subyekti faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi faolligi va viloyat miqyosida tadbirkorlik infratuzilmasi shakllanib ulguraganini bildiradi. Kichik biznes subyektlari tomonidan 14 155,4 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan, bu viloyat sanoatida ushbu subyektlarning jiddiy ishtirokini anglatadi. Bu jarayon,

¹ Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ayniqsa, qayta ishlash sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va yengil sanoat yo‘nalishlarida to‘plangan tajriba va o‘zlashtirilgan texnologiyalar bilan uzviy bog‘liqdir.

Viloyatda KBTning qurilish ishlari hajmi 11 015,6 mlrd so‘mni tashkil etib, qurilish ishlari umumiy hajmining 73,0 foizni tashkil etadi. Bu kichik biznesning infratuzilmaviy loyihalarda, xususan, turar-joylar, ishlab chiqarish ob‘yektlari, yo‘l-transport inshootlari qurilishida muhim iqtisodiy agent sifatida qatnashayotganini ko‘rsatadi. KBTning investitsiya hajmi 13 499,9 mlrd so‘mga teng bo‘lib, viloyatdagi jami investitsiya hajmining 40,9 foizini tashkil etadi. O‘shirish so‘rati 2024 yilning mos davriga nisbatan 158,1 foizni tashkil etadi. Bu sohada kichik biznes subyektlari o‘z faoliyatini kengaytirish, yangi texnologiyalar joriy etish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish borasida faol harakat qilayotganini tasdiqlaydi. Bu holat hududda investitsion muhitning ma‘lum darajada barqarorligini va rivojlanayotganligini aks ettiradi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha ko‘rsatkichning yirik qismi Qarshi shahriga 2768,4 mlrd so‘m, Chiroqchi tumaniga 1028,0 mlrd so‘m va Muborak tumaniga 1023,7 mlrd so‘m to‘g‘ri keladi. Bu holat tumanlardagi kichik biznes subyektlari faoliyatining faol ekanidan dalolat beradi.

Qurilish ishlari bo‘yicha Qarshi shahri mutlaq yetakchi hisoblanib, 3,7 trln so‘mlik ish hajmi bilan viloyatning 33,5 foizini tashkil etgan. Shuningdek, Koson tumanida 939 mlrd so‘mlik 8,5% qurilish ishlari amalga oshirilgan. Bu esa shahar va yirik tumanlarda infratuzilma kengayishi va xususiy sektor faolligini aks ettiradi.

Investitsiyalar hajmida esa Nishon tumani sezilarli ajralib turadi, 6 trln so‘mdan ortiq investitsiya jalb etilgan bo‘lib, bu viloyat umumiy hajmining 44,6 foiziga (6017,6 mlrd so‘m) to‘g‘ri keladi. Bu holat yirik loyihalarning kichik biznesni jalb etgan holda amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Qarshi shahri esa 11,7 foizlik (1582,6 mlrd so‘m) ulush bilan ikkinchi o‘rinda turadi.

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar hududning tabiiy resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, mavjud infratuzilma holati hamda mehnat resurslari salohiyatiga tayanadi. Bu omillar viloyatda kichik biznesni tarmoqlar bo‘yicha maqbullashtirish va samarali rejalashtirish zarurligini yuzaga keltiradi. Xususan, Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarida kichik biznes va tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy faoliyat tarmoqlari bo‘yicha shakllangan statistik ko‘rsatkichlar ushbu yo‘nalishlarning ustuvorligini aniqlashda muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar kichik biznes subyektlari faoliyati ko‘proq qishloq xo‘jaligi, savdo, qurilish, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish tarmoqlarida jamlanganini ko‘rsatadi. Mazkur sohalarning ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kirishiga birinchi navbatda ularning tabiiy resurslarga yaqinligi, aholi bandligini ta‘minlashdagi roli, shuningdek, bozordagi talab yuqoriligi sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, ayrim tumanlarda turizm, hunarmandchilik, agrosanoat klasterlari va mahalliy xomashyo asosida qayta ishlash sohalarning ham istiqboliligi mavjud bo‘lib, bu esa ularni ham ustuvor yo‘nalishlar sirasiga kiritish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasini asosida Qashqadaryo viloyatida qaysi yo‘nalishlar ustuvor ekanligi va nima sababdan ular ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kirishi izohlanadi:

1. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati.

Qashqadaryo viloyati boy agroiklimiy sharoitga ega bo‘lib, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay hududdir. Viloyatda suv resurslari va yer maydonlarining mavjudligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish imkonini beradi. Aholining asosiy bandlik manbaalaridan biri bo‘lib, bu sohani rivojlantirish ishsizlikni kamaytiradi.

2. Yengil sanoat (to‘qimachilik, tikuv-trikotaj)

Paxta xomashyosi viloyatda yetarli darajada ishlab chiqariladi. Ishchi kuchi arzon va ko‘p sonli bo‘lib, ayniqsa ayollar bandligini ta‘minlashda muhim. Paxtani chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulot eksportini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Kichik tikuv sexlarini tashkil etish orqali mahalliy bandlikni kuchaytirish amalga oshirilmoqda.

3. Turizm (ekoturizm, tarixiy turizm, agro-turizm)

Shahrisabz va Kitob kabi tarixiy hududlarda boy madaniy meros mavjud. Tog‘li va tabiiy go‘zal manzarali hududlarda ekoturizmni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Turizm kichik biznes uchun xizmat ko‘rsatish (mehmonxona, ovqatlanish, qo‘llanma xizmatlari) orqali ko‘p sohani qamrab oladi. Xususi mehmon uylari, kemping va milliy ovqatlanish joylarini tashkil etish

mumkin. Ichki va tashqi turistlar oqimini oshirish orqali mahalliy daromadni ko‘paytirish imkoniyati mavjud.

4. Xizmat ko‘rsatish sohasi (maishiy, texnik, logistika)

Urbanizatsiya jarayoni jadallashmoqda, aholining xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji ortmoqda. Kichik biznes uchun xizmat ko‘rsatish – kam investitsiya talab qiladigan, ammo tez daromad keltiradigan soha. Qarshi shahri va boshqa yirik aholi punktlarida xizmat ko‘rsatish tarmoqlari hali to‘liq shakllanmagan. Avtoservislar, sartaroshxonalar, ustaxonalar, IT xizmatlari, logistika markazlari kengaytirilishi orqali yoshlarni ish bilan ta‘minlash imkoniyati mavjud.

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda mavjud muammolarni hal etish bilan birga, mavjud imkoniyatlardan to‘liq va samarali foydalanish zarur. Buning uchun kompleks yondashuv, mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda strategik rejalashtirish va xususiy sektor bilan davlat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yetarli salohiyat va resurslar mavjud.

Viloyatdagi mavjud muammolarni hal etish va kichik biznes rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida quyidagi xulosa va takliflar ilgari suriladi:

1. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish: Kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va investitsion dasturlar hajmini oshirish, moliyalashtirish mexanizmlarini soddalashtirish lozim.

2. Tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish: Yoshlar va ayollar uchun biznes-treninglar, startap inkubatorlari va tajriba almashinuvi dasturlarini tashkil etish zarur.

3. Mahalliy mahsulotlarni bozorga chiqarishni qo‘llab-quvvatlash: Qashqadaryoda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga olib chiqish uchun logistika markazlari, ko‘rgazmalar va onlayn platformalar tashkil etish muhim.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ijtimoiy barqarorlik va aholining farovonligi uchun ham strategik ahamiyatga ega. Mazkur yo‘nalishda tizimli va barqaror choralar ko‘rilsa, viloyatning umumiy iqtisodiy salohiyati yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). Kichik tadbirkorlik subyektlarining faoliyati bo‘yicha statistik ma’lumotlar. – <https://stat.uz>

2. Shodiyev T.Sh. (2020). O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishda kichik biznesning o‘rni. – T.: Iqtisodiyot, 2020.

<p>Л.Худоёров</p> <p>Приоритетные направления развития малого бизнеса и предпринимательства в Кашкадарьинской области</p>	<p>L.Khudoyorov</p> <p>Priority directions for the development of small business and entrepreneurship in Kashkadarya region</p>
<p>Аннотация. В статье анализируются приоритетные направления развития малого бизнеса и предпринимательства в Кашкадарьинской области. Изучив экономический потенциал региона, имеющиеся ресурсы, а также условия, созданные для предпринимательства, были выделены возможности для расширения деятельности малого бизнеса, создания новых рабочих мест и повышения доходов населения.</p> <p>Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, занятость, ресурсы, доходы населения, производственная кооперация, сфера услуг, молодежное и женское предпринимательство.</p>	<p>Abstract. This article analyzes the priority areas for the development of small business and entrepreneurship in the Kashkadarya region. Having studied the economic potential of the region, available resources and the conditions created for entrepreneurship, it highlights the opportunities for expanding the activities of small business entities, creating new jobs and increasing the income of the population.</p> <p>Keywords: small business, entrepreneurship, employment, resources, population income, industrial cooperation, service provision, youth and women's entrepreneurship.</p>

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.